

**AHBOROT PSIXOLOGIK XAVSIZLIKNI TA'MINLASHDA
KOMMUNIKATIV YONDASHUV MASALALARI.***Yusupova Yo.M.**ADU.Umumiy psixologiya kafedrasida
dotsenti**Tel.mobil:+998943842289**Email:psixolog_adu@mail.ru*

Аннотация: Ushbu maqola psixologik havfsizlikning o'ziga hos hususiyatlari haqida va ahborot psixologik havfsizlining XXI asrga hos xususiyatlari haqida fikrlar va ta'hlillar ba'ён этилган. Axborot va psixologik havfsizlikka yangi chaqiriq va tahdidlar – axborot urushlari, axborot qarama-qarshiligi, psixotronik qurollar, xalqaro terrorizm va boshqalar. Axborot - psixologik havfsizlik bu - fuqorolar, ularning alohida guruhlari va ijtimoiy qatlamlari, umuman olganda aholini salbiy axborot - psixologik ta'sirlardan muhofaza qilinganlik holatidir.

Kalit so'zlar: axborot psixologik havfsizlik, ahborot urushlari, xalqaro terrorizm, muhofaza, globallashtuv, xalqaro ijtimoiy – iqtisodiy va ekologik muammolar

**ВОПРОСЫ КОММУНИКАТИВНОГО ПОДХОДА В
ОБЕСПЕЧЕНИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ
ИНФОРМАЦИИ.***Юсупова Ю.М.**АГУ, доцент кафедры общей психологии**Мобильный телефон: +998943842289.**Электронная почта: psiholog_adu@mail.ru*

Аннотация: В данной статье представлены мысли и анализ об уникальных особенностях психологической безопасности и особенностях информационной психологической безопасности в 21 веке. Новые вызовы и угрозы информационной и психологической безопасности – информационные войны, информационные конфликты, психотронное оружие, международный терроризм и др. Информационно-психологическая безопасность – это состояние защищенности граждан, их отдельных групп и социальных слоев, населения в целом от негативного информационно-психологического воздействия.

Ключевые слова: информационная психологическая безопасность, информационная война, международный терроризм, защита, глобализация, международные социально-экономические и экологические проблемы.

ISSUES OF THE COMMUNICATIVE APPROACH IN ENSURING PSYCHOLOGICAL SAFETY OF INFORMATION.

Yusupova Yu.M.

ASU, Associate Professor, Department of General Psychology

Mobile phone: +998943842289.

Email: psiholog_adu@mail.ru

Abstract: This article presents thoughts and analysis about the unique features of psychological safety and the features of information psychological safety in the 21st century. New challenges and threats to information and psychological security - information wars, information conflicts, psychotronic weapons, international terrorism, etc. Information and psychological security is the state of protection of citizens, their individual groups and social strata, the population as a whole from negative information and psychological influences.

Key words: information psychological security, information war, international terrorism, protection, globalization, international socio-economic and environmental problems.

Jahon hamjamiyati XXI asrga 20-asrning hal etilmagan muammolari yuki bilan kirib keldi. Bularga bugungi kun muammolari ham qo'shiladi. Ulardan asosiysi axborot va psixologik xavfsizlik muammosidir. Axborot va psixologik xavfsizlikka yangi chaqiriq va tahdidlar – axborot urushlari, axborot qarama-qarshiligi, psixotronik qurollar, xalqaro terrorizm va boshqalar. Bu inson va insoniyat sivilizatsiyasining mavjudligi yoki o'limi haqidagi savol. Ushbu dahshatli qurollarni yaratgan odam ularning garoviga aylanadi. G. V. Grachev va I. K. Melnik o'z monografiyalarida ushbu muammoni ko'rib chiqqan holda, mualliflar axborotning maqsadli funksiyasini, agar u odamlarning ruhiyatiga ta'sir qilish va ularning xatti-harakatlarini boshqarishning o'ziga xos vositasi bo'lib xizmat qilsa, "Ehtimol, mutaxassislarda "axborot-psixologik ta'sir" tushunchasi ortiqcha emasmi degan savol tug'iladi", deb ta'kidlaydilar.

Globalashuv kishilik jamiyatidagi mahalliy ahamiyatga molik madaniy, axborot, iqtisodiy, nosiyosiy makonlarning bir tizimga birlashuvi jarayonidir. Yer kurrasining turg'un transport marshrutlari bilan birlashtiriluv, migratsiya oqimlarining kuchayishi, axborot texnologiyalarining taraqqiy etishi va hakoza shakllanayotgan

globallashuvning bosqichlaridir. O'tgan asrning oxiri bu jarayon misli ko'rilmagan darajada jadallashuviga olib keldi va globallashuv davri nomini oldi.

Hozirgi davrda globallashuv jarayoni tobora kengayib bormoqda va bu jahon siyosiy makoning yangicha ko'rinishi va taraqqiy etishiga ta'sir qildi. Jahon siyosiy makonida davlatlarning global rivojlanishi bu avvalambor, dunyoning barcha davlatlari va xalqlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik, psixologik jihatdan birgalikdagi yangicha taraqqiyotidir. Globallashuv sharoitida avj olgan muammolarning yechimi hamkorlikdagi harakatlarni talab qiladi. Ushbu integratsion jarayonlar doirasida quyidagi maqsad va vazifalarning amalga oshirilishi izohlanadi. Bular :

1) Xalqaro ijtimoiy – siyosiy muammolar:

- yadro urushining oldini olish;
- qurollanishi poygasi darajsini pasaytirish;
- mintaqaviy va davlatlaroro mojoralarni hal qilish;
- umumjahon havfsizlik tizimining mustahkamlanishi;
- xalqlar o'rtasidagi ishonchni takomillashtirish.

2) Xalqaro ijtimoiy – iqtisodiy va ekologik muammolar:

- kam rivojlanganlik va u bilan bog'liq bo'lgan qashshoqlik hamda madaniy qoloqlikni bartaraf etish;
- energetik, xomashyo, mahsulot inqirozlarini hal etish yo'llarini qidirish;
- tinch maqsadlar uchun koinot makonini va jahon okeanini o'zlashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonini ekologik xavfsizlikni ta'minlash;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash.

3) Inson muammolari:

- asosiy huquq erkinliklariga rioya qilish;
- inson hayoti uchun muhim bo'lgan sharoitlarni ta'minlash, ijtimoiy munosabatlarni demokratlashtirish, madaniyatni rivojlantirish va saqlash;
- inson va tabiat, jamiyat, siyosat va xalqaro munosabatlar o'rtasidagi muvozanatni uyg'unlashtirish.

Jahon hamjamiyati tajribasi insoniyat taqdiriga ta'sir etuvchi muammolarni faqatgina birlashgan holda hal etish mumkinligini ko'rsatadi. Axboriy-psixologik xavfsizlik borasidagi bunday tahdidlarga qarshi kurashishda eng avvalo, huquqiy asosni mustahkamlash lozimdir. Bu boradagi tahdidlar doim ham mamlakat ichkarisidan chiqavermasligini, ularning chetdan turib tashkillashtirishga urinish hollari mavjudligini ham unutmazlik zarur.

Har bir jamiyatda axborot – psixologik xavfsizlik tushunchasi ko'p ishlatiladi. Bu tushuncha avvalo qanday paydo bo'ldi? Uning hayotiyliги insoniyat taqdiriga dahldorligi nimada? Ana shunday savol tug'ilishining o'zi muammolarning dolzarbligi

va o‘ta keskinligini ko‘rsatadi. Bizningcha, axborot-psixologik havfsizlik tushunchasi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1) Axborot-psixologik havfsizlik bu bevosita inson ruhiyatiga ta’sir o‘tkazishi orqali uni o‘z aqidalaridan, muqaddas ideallaridan, e’tiqodlaridan ayiradigan buzg‘unchi g‘oyalardan asrashdir.

2) Axborot-psixologik havfsizlikka rioya qilinmasa, uning ta’sirchan choralari ko‘rilmasa, buzg‘unchi g‘oyalar milliy qadriyatlarni barbod etish orqali tarixan mavjud bo‘lgan xalqlar va millatlarni genotsidga olib kelishi muqarrar.

3) Tig‘iz axborotlashgan jamiyatda axborot orqali zamonaviy ruhiy ta’sir texnologiyalarining tobora rivojlanib borayotganligi shaxs va jamiyat tafakkurining shakllanishiga u yoki bu tarzda kuchli ta’sir o‘tkazadi. Jamoatchilik fikrining qay darajada shakllanganligiga, jamiyatning siyosiy ongi, huquqiy bilimlar saviyasi, ma’naviy-ma’rifiy darajasiga qarab, jamiyatning taraqqiyotiga yoki tanazzuliga yuz tutishi muqarrar.

4) Ijtimoiy fikrni shakllantirishda axborot ta’sirini, axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari va uslublarining tobora kengayib borayotganligini nazarda tutsak, axborot – psixologik havfsizlik muammosi yana ham keskinlashib qoladi

Axborot va psixologik xavfsizlik muammosi axborot xavfsizligi muammosining bir qismi xisoblanadi. Axborot va psixologik xavfsizlik sohasidagi qonunchilik konsepsiyasini ishlab chiqish 1990 yilda SSSR Oliy Kengashining milliy xavfsizlik masalalari bo'yicha parlament komissiyasida boshlangan edi. Biroq, 2000 yildan keyin qonun loyihasi muhokamadan olib tashlandi va uning o'rniga boshqa so'z kiritildi, unda so'zning ikkinchi qismi - psixologik - yo'qoladi. Faqat birinchi qism qoladi - axborot xavfsizligi. Xuddi shu narsa xalqaro, mintaqaviy va milliy hujjatlarga ham tegishli. Hamma joyda faqat axborot xavfsizligi haqida aytiladi, bu esa, bizningcha, inson va butun jamiyat xavfsizligi muammosining psixologik tomonining zaiflashishiga olib keladi.

Manipulyatsiya xarakterining axborot-psixologik ta'siri inson nazoratining o'ziga xos shaklidir. Va bu shakl yashirin ravishda amalga oshirilganda xavflidir. Shaxsga ma'lumot va psixologik ta'sir ko'rsatishning manipulyatsiya texnologiyasini bilish shaxsni ruhiy himoya qilish yo'lidagi birinchi qadamdir. “Ijtimoiy ta’minotning dolzarb muammolari” ijtimoiy-siyosiy loyihasida axborot-psixologik ta’sirning quyidagi batafsil ta’rifi berilgan: bashorat qilinadigan fikr va munosabatlar, xulq-atvor reaksiyalari, psixologik munosabat. Shu o'rinda axborot psixologik xavfsizlik o'zi qanday tushuncha degan savol paydo bo'ladi. Axborot - psixologik xavfsizlik bu - fuqorolar, ularning alohida guruhlari va ijtimoiy qatlamlari, umuman olganda aholini salbiy axborot - psixologik ta'sirlardan muhofaza qilinganlik holati.[2]

Axborot xavfsizligi:

✚ Axborotning uning egasiga zarar keltiradigan tasodif yoki qasddan qilingan tahdidlarga chidamliligining umumlashgan xossasi.

✚ Axborotning holati. Bu holat axborot tashuvchisining (axborotlashtirish ob'ekti, ma'lumotlarni uzatish tarmog'i va boshqalarni) uni qayta ishlash, saqlash va uzatishda axborotning konfidentsiallik, butunlik va kirishimlilik kabi xususiyatlarga ega bo'lib qolishini ta'minlash qobiliyati bilan tavsiflanadi.

✚ Axborotning chiqib ketishi, soxtalashtirilishi, nusxa olinishi, o'zgartirilishi, oshkor bo'lishi, buzilishi, qamal qilinishiga olib keluvchi beruxsat tasodifan yoki qasddan qilingan amallardan muhofazalanganligi. Konfidentsiallik, butunlik va kirishimlilik axborot xavfsizligining tavsifnomasi bo'lib hisoblanadi.

✚ Axborot munosabatlari sub'ektiga zarar etkazish mumkinligi bilan bog'liq bo'lgan xavf ehtimolining yo'qligi.

Jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlatning axborot sohasida muhofaza qilinganlik holati.

✚ Axborot va qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmaning muhofaza qilinganligi. Bunda tasodifan yoki atayin qilingan, tabiiy yoki sun'iy tavsifga ega bo'lgan va axborot va qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma egasi yoki foydalanuvchilariga zarar etkazish mumkin bo'lgan ta'sirlardan muhofazalash nazarda tutilgan

Hozirgi kunda ko'pchilik axborot olish manbai sifatida murojaat qiladigan, hayotimizning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib ulgurgan internet xususida ba'zan kishilar bir yoqlama fikr yuritayotganini kuzatamiz. Ayrimlar uning ijobiy tomonlari, imkoniyatlarini haddan tashqari yoqlab, ashaddiy tarafdor sifatida internetni qo'llab-quvvatlasalar, boshqalar esa ko'proq foydalanish jarayonida inson oladigan negativ, salbiy ta'sirlarga e'tibor qaratadilar. Ayni nuqtai nazardan internetning funksiyalari, vazifalari, imkoniyatlarini to'g'ri anglash va undan maqsadga muvofiq foydalanishni har bir fuqaro uddalashi lozim, deb o'ylaymiz. Ba'zi yoshlarning internetga mukkasidan ketishini esa sabab emas, oqibat sifatida baholagsh mumkin.

Xulosa kilib aytadigan bo'lsak, har bir axborot mazmuni, mohiyati, ta'sir etish darajasi, jamiyatga foydali yoki zararliligi, kishini ezgulikka yoki yovuzlikka da'vat etishi bilan "shaxs – jamiyat – davlat" mutanosibliligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Ana shu jihatdan qaraganda milliy manfaatlarni asrash, rivojlantirishda axborot - psixologik xavfsizlikni ta'minlashning roli juda muhimdir. Demak, yoshlarimizda bu g'oyani to'g'ri talqin qilish, fikr-mulohazalarini boyitish uchun ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar tashkil qilinishi, soha bo'yicha turli ilmiy kitoblar yaratilishi davr talablaridan biri hisoblanadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Adabiyotlar.

1. Amirov D.M, Atadjanov A.Y, Atadjanov D.Y va boshqalar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati. Qayta ishlangan, to'ldirilgan ikkinchi nashr. B 28, 31

2. Abduazizova N. Milliy mafkura va axborot makoni. //O‘zbekiston matbuoti, 2006. 5-son, 12-b.
3. Musaxoniy A.. Axborot makoni paydo bo‘lishi mumkinmi? // Jamiyat va boshqaruv, 2006 y. №1
4. Mo‘minov F.A. Ommaviy axborot vositalari va axborot qarama-qarshiligi. /O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi joriy arxivi, 2006
5. Rashidova D. Muratova. N. Internet jurnalistikasi T.: 2007 y. 9-bet
6. Safaev S.S. «Globallashuv sharoitida milliy xavfsizlikni ta’minlashning dolzarb masalalari» T. 2005, 1-bet
7. Safaev S.S. / Tarkatma material/ «Globallashuv sharoitida milliy xavfsizlikni ta’minlashning dolzarb masalalari» T. 2005 2-3-betlar